

Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-aprel oylarida, Navoiy viloyatida jami 3 268,0 mldr so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 87,6 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	3 268,0	87,6
Navoiy sh	526,4	100,1
Zarafshon sh	277,9	85,0
G'ozg'on sh	2,2	119,9
Konimex tumani	34,2	102,8
Qiziltepa tumani	467,5	109,8
Navbahor tumani	164	117,9
Karmana tumani	206	101,2
Nurota tumani	121,1	54,9
Tomdi tumani	272,3	34,0
Uchquduq tumani	130,4	321,8
Xatirchi tumani	170,2	103,6

*) joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda hisob-kitob qilingan
Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


Qurilish ishlari hajmi (yillik)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-aprel oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 73,6 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 79,6 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,2 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,2 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 159,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	365,0	256,0	9,9
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	36,7	114,1	191,0
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	920,9	369,5	226,2
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	98,1	109,5	157,9
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1120,5		
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	103,3		

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi (yillik)
III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-aprel oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 630,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 51,5 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 13,6 % ga kamayib, 19,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 46,4 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 106,8 % ni tashkil etgan holda 1 516,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 34,3 % ni yoki 1 120,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari


**Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Navoiy viloyati	630,9	1 516,6	1 120,5	51,5	106,8	103,3
Navoiy sh	55,0	430,3	41,1	60,6	108,8	103,7
Zarafshon sh	-	253,1	24,8	-	101,3	101,5
G'ozg'on sh	-	0,02	2,2	-	-	118,8
Konimex tumani	5,9	10,8	16,4	94,6	105,2	104,9
Qiziltepa tumani	104,4	263,2	94,9	165,6	98,3	103,1
Navbahor tumani	12,2	111,1	40,1	98,2	126,9	103,8
Karmana tumani	10,8	104,1	88,1	101,4	99,6	103,1
Nurota tumani	13,7	47,5	55,5	15,1	101,7	104,1
Tomdi tumani	200,7	33,4	2,0	29,8	689,5	102,0
Uchquduq tumani	86,2	10,8	19,3	977,3	103,8	96,3
Xatirchi tumani	12,4	48,7	108,5	100,0	103,9	103,9

*) joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda hisob-kitob qilingan

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning eng yuqori o'sish sur'atlari Uchquduq tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 977,3 %), Qiziltepa tumanida (165,6 %) va Karmana tumanda (101,4 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning eng yuqori o'sish sur'atlari Tomdi tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 689,5 %), Navbahor tumanida (126,9 %) va Navoiy shaharda (108,8 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiyomatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.



Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Bahronov
79 223-54-73 (85-20)

Manzil:

